



TILAME

5-6-mavzular:

MARKAZIY OSIYO DINLARI

Reja:

1. Markaziy Osiyoda tarqalgan dinlarning hozirgi holati.
2. Zardushtiylik jamoalarining zamonaviy hayot tarzi.
3. Tangrichilikdagi «Uyg‘onish» harakati va buning zararli oqibatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasining qadimda Buyuk Ipak yo‘lida joylashganligi bu yerda ko‘p millatli va konfessiyali davlatning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Buyuk Ipak yo‘li Shosh, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiylar orqali o‘tgan.

Bu shaharlarda yirik karvonsaroylar, savdo rastalari va bozorlarning rivojlanishi bilan birga turli madaniyat, til va din vakillari ham jamlandi. Tabiiyki, ular o‘z urfat va an’analalarini ham olib kirishdi.



TARIXGA NAZAR

Buyuk Ipak yo'li O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini o'zaro bog'lagan qit'alararo karvon yo'li. «Buyuk Ipak yo'li» atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmataho tovar – Xitoy ipagi bilan bog'liq. Markaziy Osiyoda qadimdan jahon dinlari – buddaviylik, xristianlik, islom dinlari tarqalgan. Shuningdek, moniylik va yahudiylilik dinlari ham mavjud bo'lgan.





Jahon miqyosida zardushtiylikning diniy manbasi Avestoni o‘rganish avestoshunoslik nomini olgan. Hozir AQSh, Rossiya, Eron, Hindiston davlatlarida yirik avestoshunoslik markazlari mavjud. Bugungi kunda eng yirik zardushtiy jamoalari — Eron gebrlari va Hindiston parslari o‘rtasida faqatgina til, ibodatlarni o‘tkazish shakli va yil hisobi borasida ba’zi ixtiloflar mavjud. Ayni damda Hindistonda ruhiy jihatga e’tibor beruvchi qator guruhlar yuzaga kelgan.



TIIAME

MA’LUMOT
UCHUN
Gebrlar va
parslar —
zardushtiylik
diniga e’tiqod
qilishni
saqlab qolgan
etnokonfessional
guruhlar.



Зардуштнинг туғилган ва илк диний фаолиятини бошлаган жой түғрисида икки фикр мавжуд

Фарб назарияси

Унга кўра Медиа (Эрон)
Зардуштнинг ватани ва
зардуштий-ликнинг илк
тарқалган жойи
ҳисобланади.

Шарқ назарияси

Унга кўра Зардушт
ватани ва
зардуштийликнинг илк
тарқалган жойи Хоразм
ҳисобланади. Кўпчилик
манбашунослар шу
назария
тарафдоридирлар



ТПАМЕ



Зардүштийли кда имон

З та нарсага асосланади




ТПАМЕ


Гума
та
яхш
и
фикр

Гук
та
ях
ши
сўз

Гварш
та
яхши
иш



Эрон.



Хоразм.



TILAME



Hindiston parslari



Eron gebrlari

Globallashuv ta'sirida so'nggi vaqtarda zardushtiylikni

isloq qilish, ko'pgina marosimlarni bekor qilib, faqat «Gat»larni muqaddas kitob deb tan olish fikri olg'a surilmoqda. Hozirda jahon miqyosida zardushtiylar

Hindistonda 100 ming, Eronda 50 ming, Yevropa, Osiyo mamlakatlari hamda Amerikada bir necha ming kishini tashkil etadi.



Urganch shahrida
Avestoga qo'yilgan yodgorlik.



TIIAME



2001-yilda YUNESKO tomonidan
Avestoning 2700 yilligi nishonlandi.

Markaziy Osiyo mintaqasida yuzaga kelgan dinlardan
yana biri bu tangrichilikdir. Mintaqqa xalqlari tarixida
mazkur e'tiqodning o'ziga xos o'rni bo'lган.
Tangrichilik tarixi o'lkamiz xalqlarining o'tmish
madaniyati,
ijtimoiy hayoti va turmush tarzi haqida ma'lumot
beruvchi tarixiy manbalardan biridir.



Bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlari orasida tangrichilikni qadimiyligi an'ana sifatida tiklashga urinishlar bor. Bunday harakatlar ortida ayrim g'arazli maqsadlar ham yotganini sezish mumkin.

1990-yillardan boshlab tangrichilikka e'tiqod qiluvchi guruuhlar paydo bo'la boshladi. Ataylab ko'tarib chiqilayotgan bu holat aholi orasida bo'linishlarga olib kelishi mumkin. Chunki bugungi kunda ushbu mintaqada o'zlarining ko'p asrlik diniy e'tiqodlariga ega bo'lgan turli millat va elatlar istiqomat qiladilar. Shunday sharoitda tangrichilik dinini qayta tiklashga urinish milliy va diniy ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.



TILAME

Aqlli bo'lish kifoya emas,
muhimi uni ishlata bilishdir.

Rene Dekart

Inson hayoti
davomida umr
yo'lini o'ziga-
o'zi yaratib
boraveradi.

O. Mahmudovning
«Ummondan
durlar»
kitobidan



TIIAME

MA'LUMOT UCHUN

★ Xoqonlik o‘z davlat mafkurasiga ko‘ra, «el» deb atalib, qadimgi tarixda u bilan bog‘liq «mangu el», «Tangri (ilohiy) el», «turk eli» kabi iboralar shakllangan. El va xoqon hokimiyatning Tangri tomonidan Ashina xonadoniga «Turk budun (xalqi)»ga in’om qilinganiga ishonilgan. Qadimgi turk jamiyati dunyoning biror boshqa siyosiy uyushmasi hukmdoriga «xudo-qirol» sifatida qaramagan, chunki bunday siyosiy iqtidor (ne’mat) Tangri tomonidan faqat Ashina xonadoniga in’om etilgan, degan tasavvur Ashina turklari tasavvurida hukmron edi. Shu bois, Ashina xonadoni hokimiyati ilohiylashtirilgan. Agar Tangri bergen siyosiy hokimiyat ishonchni oqlamasa, ya’ni o‘z iqtidorini ko‘rsata olmasa, unday hukmdor hokimiyatdan uzoqlashtirilib, «Tangri bergen siyosiy hokimiyat yana Tangri tomonidan qaytarib olinadi», deb tushunilgan.

Abu Rayhon Beruniy

Tangrichilik ta'limoti

Tangrichilikda daraxtlarga **turli matolarni** bog'lash orqali yer va osmon bog'lanadi, deb e'tiqod qilingan. Qadimiylar mutlaq o'limga ishonishmagan. Hayot ma'lum doira ichida butun fazo bo'ylab aylanib yuradi, deb e'tiqod qilishgan. Shundan kelib chiqib, ular insonning jismoniy o'limidan qo'rqishmagan va uni hayotning tabiiy davom etishi, deb qarashgan. Ular o'limni bir hayotdan ikkinchi hayotga o'tish **deb ishonganliklari** uchun, jasad kiyim-kechagi va kundalik zarur bo'ladigan ashyolar bilan bиргаликда dafn etilgan.





Qovunchi madaniyati moddiy va ma'naviy dunyosiga qaraganda, turkiy etnik jamoalariga xos Tangri xudosi, totemizm va uning ot, qo'chqorni ilohiylashtirish, sehr-joduga ishonish kabi jihatlari omma orasida davom etgan.

Qadimiy turkiylar jang maydonida qahramonlik qilgan ajdodlar ruhiga alohida e'tibor qaratganlar.

Ajdodlar ruhiga sig'inish turkiylarda o'zidan oldingi yetti ota-bobosi faoliyatini yaxshi bilish an'anasini shakllantirgan. Ayni paytda, qadimiy turkiylarning dunyoqarashida borliqning cheksizligi, hayotning doimiy harakat va muntazam yangilanishda ekani haqidagi tasavvurlar muhim o'rinnegallagan.



TIIAME

XXI asrning boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamlakatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonda o‘ziga xos diniy manzaraga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Qozog‘iston Respublikasida rasman 18 konfessiya tarkibida 3600 dan ortiq diniy tashkilot mavjud.

Shuningdek, mamlakatda 246 ta noan’anaviy diniy guruhlar va yangi jamoatlar (missionerlar) ham faoliyat ko‘rsatadi. Turkmaniston Respublikasida 13 ta diniy konfessiya ro‘yxatga olingan. Mamlakatda 128 ta diniy tashkilot mavjud. Qirg‘iziston Respublikasida 30 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud.





TIIAME



Shuningdek, mamlakatda 246 ta noan'anaviy diniy guruhlar va yangi jamoatlar (missionerlar) ham faoliyat ko'rsatadi. Turkmaniston Respublikasida 13 ta diniy konfessiya ro'yxatga olingan. Mamlakatda 128 ta diniy tashkilot mavjud. Qirg'iziston Respublikasida 30 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud.

